



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

АГПИ
Научный вестник



ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 2 2026 **aprel**

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

Murojaat uchun:

Telegram: ADPIilmiyxabarnoma_bot

Electron manzil: eduservis@gmail.com

2/2

BOSH MUHARRIR:

B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul muharrir:

B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi

I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor

Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

A.E. Zaynobiddinov- biologiya fanlari doktori, professor

B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor

Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.A. Tojiboyeva - filologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Zapparov- texnika fanlari nomzodi, professor

U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor

M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor

L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor

Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D'.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.S. Karimov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

M.I. O'rinboyev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Muharrirlar:

O. Karimov,

U. Malikova,

B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Artikova M.B., Turaboyeva M.R. Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida	4
Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	9
Hasanov Sh.A. Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida	15
Shabdullayeva L.O. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari	20
Agzamova N.O. Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri	30
Matmusayev T.M. Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi	35
Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z. Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	42
Alimov J.A., Shermuhammedov M. Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish	47
Axunov U.R. Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash	51
Shabdullayeva L.O. Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari	55
Karimova M.M. Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni	62
Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'. Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari	67
Hasanov Sh.A. Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida	71
Ismonov X.B., Azimjonova U.Z. Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati	78
Maxmudov A.O. Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish	84
Abduraxmonova D.Sh. Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari	89
Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	93
Madaminova G.G. Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari	100
Mashrabova B.N. Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language	106
Nishonov N.A. O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari	111
Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L. Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati	115
Uraimov S.R., Xakimjonov M.X. Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish	120
Yoqubjonov N.G'. Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirish	126
Jo'rayeva D.I. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi	130

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A. Yangi O'zbekistonda sud huquq tizmidagi islohatlar	135
Raximova Z.X. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida	142
Uzaqova N.M. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari	149
Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash	153
Mutallibjonov U.I. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni	157

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A. Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	162
Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш. Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий	169
Umarov A.V. Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari	173
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	179
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	183
Mamadaliyev B.K. Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	187
Jamoldinova D.A. Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi	192
Ablazova K.S. Uzlüksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi	196

UO'K: 373.21:796(575.1)

FUTBOL ORQALI TALABALARDA JAMOAVIYLIK VA YETAKCHILIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Yoqubjonov Nodirbek G'ayratbek o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirishda futbol o'yinining pedagogik va tarbiyaviy imkoniyatlari yoritilgan. Futbol mashg'ulotlarining talabalar shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi hamda jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, tahlil va qiyoslash usullaridan foydalanilgan. Maqolada futbol orqali talabalarda yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar:

futbol, jamoaviylik, yetakchilik, jismoniy tarbiya, tarbiya, pedagogik jarayon.

Аннотация.

В данной статье раскрываются педагогические и воспитательные возможности футбольной игры в формировании у студентов высших учебных заведений коллективизма и лидерских качеств. С научно-теоретической точки зрения проанализировано значение футбольных занятий в развитии личностных качеств студентов, их социальной активности и способности работать в команде. В ходе исследования использованы методы педагогического наблюдения, анализа и сравнения. В статье разработаны практические рекомендации по эффективному формированию лидерских способностей у студентов посредством футбольных занятий.

Ключевые слова:

футбол, коллективизм, лидерство, физическое воспитание, воспитание, педагогический процесс.

Abstract.

This article discusses the pedagogical and educational potential of football in developing teamwork and leadership qualities among students of higher education institutions. From a scientific and theoretical perspective, the significance of football training in fostering students' personal development, social activity, and ability to work in a team is analyzed. The research employed pedagogical observation, analysis, and comparison methods. The article presents practical recommendations for the effective development of students' leadership skills through football activities.

Keywords:

football, teamwork, leadership, physical education, upbringing, pedagogical process.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri mehnat bozorida raqobatbardosh, ijtimoiy jihatdan faol, mustaqil va tanqidiy fikrlay oladigan, shuningdek, jamoada samarali faoliyat yurita oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Ushbu vazifani samarali amalga oshirish ta'lim jarayonida nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki talabalarining shaxsiy, ijtimoiy va kommunikativ sifatlarini rivojlantirishni ham taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, jismoniy tarbiya va sport

mas'g'ulotlari oliy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida talabalarning har tomonlama kamol topishida alohida o'rin tutadi. Jismoniy tarbiya va sport turlari orasida futbol o'yini o'zining ommaviyligi, jamoaviy xarakteri hamda yuqori tarbiyaviy imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Futbol mas'g'ulotlari jarayonida talabalar nafaqat jismoniy tayyorgarlikni oshiradilar, balki o'zaro muloqot qilish, hamkorlikda harakat qilish, bir-birini tushunish va qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini ham egallaydilar [1]. Bu esa talabalarda ijtimoiy-psixologik barqarorlikni, jamoaga moslashuvchanlikni va o'zaro hurmatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Futbol jamoaviy o'yin sifatida ishtirokchilardan o'zaro hamkorlik, o'zaro ishonch, intizom va yuqori darajadagi mas'uliyatni talab qiladi. Har bir o'yinchining faoliyati butun jamoa natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois futbol mas'g'ulotlari davomida talabalar shaxsiy manfaatlardan ko'ra jamoa manfaatlarini ustun qo'yish, umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilish hamda muammoli vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilishni o'rganadilar. Mazkur jarayon talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Shu sababli futbol mas'g'ulotlarini oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoniga maqsadli, tizimli va ilmiy asoslangan holda joriy etish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi [2]. Futbol mas'g'ulotlarini to'g'ri tashkil etish va ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida olib borish orqali talabalarning nafaqat jismoniy rivojlanishini, balki ijtimoiy faolligini, yetakchilik qobiliyatini va jamoada samarali faoliyat yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga erishish mumkin.

Asosiy qism. Jamoaviylik pedagogik jarayonda shaxsning ijtimoiylashuv darajasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. U shaxsning jamoa manfaatlarini anglagan holda faoliyat olib borishi, jamoa a'zolari bilan samarali hamkorlik qilishga tayyorligi, o'zaro yordam ko'rsatish hamda umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Jamoaviylik sifatining shakllanishi talabaning ijtimoiy faolligini oshirish, jamoaga moslashish va jamoada o'z o'rnini topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yetakchilik esa pedagogik nuqtai nazardan shaxsning jamoani muayyan maqsad sari yo'naltira olish, jamoa a'zolariga ta'sir ko'rsatish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish hamda muammoli vaziyatlarda to'g'ri va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Yetakchilik sifati shaxsning tashabbuskorligi, kommunikativligi, o'ziga ishonchi va irodaviy barqarorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamoaviylik va yetakchilik sifatleri talabalarda o'z-o'zidan, tabiiy ravishda shakllanmaydi [3]. Ushbu sifatlar maqsadli tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni, to'g'ri tanlangan pedagogik vositalar va faoliyat turlari orqali bosqichma-bosqich rivojlanadi. Sport o'yinlari, ayniqsa futbol, talabalarda mazkur sifatleri shakllantirish va rivojlantirish uchun katta pedagogik imkoniyatlarga ega bo'lgan samarali vosita hisoblanadi.

Futbol o'yinining jamoaviylikni shakllantirishdagi ahamiyati. Futbol jamoaviy sport turi sifatida o'yinchilarning o'zaro hamkorligi va uyg'un faoliyatiga asoslanadi. Har bir o'yinchi jamoa natijasi uchun javobgar bo'lib, uning individual harakati butun jamoaning umumiy muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois futbol o'yinida jamoaviylik tamoyili yetakchi o'rinni egallaydi. Futbol mas'g'ulotlari va musobaqalar jarayonida talabalar, o'zaro yordam ko'rsatish, jamoaviy qaror qabul qilish, o'yinchilar o'rtasida samarali muloqot olib borish, bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydilar [4]. Ushbu

jarayonlar talabalarda jamoaviy fikrlashni, umumiy maqsad sari intilish va shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatlariga bo'ysundirishni shakllantirishga xizmat qiladi.

Muntazam futbol mashg'ulotlari talabalarni jamoaviy faoliyatga jalb etish orqali ularning ijtimoiy moslashuvini osonlashtiradi, jamoada ishlash madaniyatini shakllantiradi hamda jamoaviy mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Natijada talabalar nafaqat sport faoliyatida, balki o'quv va kundalik hayotda ham jamoada samarali ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Futbol orqali yetakchilik sifatlarini rivojlantirish. Futbol o'yini jarayonida talabalar turli rollarni bajaradilar. Xususan, kapitan, himoyachi, yarim himoyachi yoki hujumchi kabi rollar talabalarda yetakchilik sifatlarini namoyon etish uchun qulay sharoit yaratadi. Ayniqsa, jamoa sardori bo'lgan talabadan yuqori darajada mas'uliyat, tashabbuskorlik va jamoani boshqarish qobiliyati talab etiladi. O'yin davomida talabalar vaziyatga mos ravishda tezkor qaror qabul qilish, jamoani ruhlantirish va rag'batlantirish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l topish kabi yetakchilikka xos sifatlarini egallaydilar. Ushbu jarayon talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, tashabbus ko'rsatish va boshqalarni ergashtira olish qobiliyatini rivojlantiradi [5]. O'qituvchi tomonidan to'g'ri va ilmiy asoslangan pedagogik yondashuv qo'llanilganda, futbol mashg'ulotlarida har bir talabaga yetakchilik qobiliyatini namoyon etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa talabalarning shaxsiy faolligini oshiradi, o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi hamda ularning ijtimoiy faolligini kuchaytiradi.

Tadqiqot usullari va natijalari. Mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida futbol mashg'ulotlarining talabalarning ijtimoiy-psixologik sifatleri, xususan, jamoaviylik va yetakchilik ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyatini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik tadqiqotlarning ilmiy-amaliy usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, suhbat, tahlil va qiyoslash usullari asosiy metodlar sifatida tanlandi. Pedagogik kuzatuv usuli orqali futbol mashg'ulotlari davomida talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, jamoada o'zini tutish madaniyati, yetakchilikka intilish holatlari va ijtimoiy faollik darajasi tizimli ravishda o'rganildi. Kuzatuvlar muntazam ravishda olib borilib, mashg'ulotlar davomida talabalar faoliyatidagi o'zgarishlar qayd etildi.

Suhbat usuli yordamida talabalar bilan individual va guruhli suhbatlar tashkil etildi. Ushbu suhbatlar jarayonida talabalarning futbol mashg'ulotlariga bo'lgan munosabati, jamoada ishlashga tayyorligi, o'z fikrini erkin bayon eta olish qobiliyati hamda yetakchilik fazilatleri aniqlashtirildi. Suhbat natijalari talabalar shaxsiy rivojlanishidagi ijobiy siljishlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tahlil usuli orqali olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, futbol mashg'ulotlarining tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati baholandi. Qiyoslash usuli esa futbol mashg'ulotlarida muntazam ishtirok etgan talabalar bilan kam ishtirok etgan talabalar o'rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini berdi. Ushbu usul natijalari tadqiqot xulosalarining ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

Tadqiqot oliy ta'lim muassasasining jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida muntazam qatnashuvchi talabalar ishtirokida olib borildi. Tajriba jarayonida futbol mashg'ulotlari talabalar jamoasida ijtimoiy faollikni oshirish, o'zaro hamkorlikni kuchaytirish va yetakchilik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi tizimli ravishda kuzatildi. Tadqiqot davomida olingan

natijalar shuni ko'rsatdiki, futbol mashg'ulotlarida muntazam ishtirok etgan talabalarda jamoada ishlash qobiliyati sezilarli darajada oshgan. Ular o'zaro yordam ko'rsatishga, umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilishga va jamoa manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yishga intilishgan. Bundan tashqari, talabalarda tashabbuskorlik darajasi va yetakchilikka bo'lgan intilish kuchaygani aniqlandi.

Shuningdek, futbol mashg'ulotlari talabalar ijtimoiy faolligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Talabalar mashg'ulotlar jarayonida o'z fikrini erkin ifodalash, mas'uliyatni zimmasiga olish va jamoaviy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini egallaganliklari kuzatildi. Bu holat ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, futbol mashg'ulotlari talabalarda o'zaro muloqot madaniyatini shakllantirish, mas'uliyat hissini kuchaytirish va jamoada samarali ishlash ko'nikmalarini mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi. Demak, futbol mashg'ulotlarini jismoniy tarbiya darslarida tizimli va maqsadli tashkil etish talabalarining nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, futbol o'yini oliy ta'lim muassasalari talabalarida jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Futbol mashg'ulotlari jarayonida talabalar jamoada ishlash, o'zaro hamkorlik qilish, mas'uliyatni his etish, qaror qabul qilish hamda qiyin vaziyatlarda tashabbus ko'rsatish kabi muhim ijtimoiy-psixologik sifatlarni egallaydilar.

Ushbu sifatlarni kelgusida talabalarining kasbiy faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Futbol mashg'ulotlarini maqsadli, tizimli va ilmiy asoslangan holda tashkil etish orqali talabalarda nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki shaxsiy rivojlanish, yetakchilik qobiliyati, jamoaviy fikrlash va ijtimoiy faollikni ham rivojlantirish mumkin. Mashg'ulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv usullar va individual yondashuvlarni qo'llash talabalarining o'quv-tarbiyaviy jarayondagi faolligini oshiradi hamda ularning ichki salohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida futbol mashg'ulotlarini takomillashtirish, o'quv dasturlarini zamon talablari asosida yangilash, musobaqaviy faoliyatni kengaytirish va talabalarining faol ishtirokini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Bu esa talabalarda sog'lom turmush tarziga intilish, ijtimoiy mas'uliyat va yetakchilik madaniyatini shakllantirishga, shuningdek, ta'lim sifati va tarbiyaviy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Akramov T.D. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019. 77-b.
3. Salomov R.S. Sport pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. 49-b.
4. Ашмарин Б.А. Теория и методика физического воспитания. – Москва, 2016.
5. Sharipov Sh.S. Yoshlar tarbiyasida sportning o'rni. – Toshkent, 2020. 92-b.

